



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

**Xatamov Ochildi Qurbonovich¹,
Shomirzayev Abdug'affor Abdujabbor o'g'li²,
Fayzullayev Fazliddin Bozorboy o'g'li³**

¹Termiz davlat universiteti Fizika-matematika fakulteti
Axborot texnologiyalari kafedrasini mudiri
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

²Termiz davlat universiteti iqtisodiyot va turizm fakulteti
Monopoliyaga qarshi boshqaruv va raqobatni
rivojlantirish yo'nalishi 2-kurs magistri

³TerDU umumiy fizika kafedrasini o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6379077>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-mart 2022

Ma'qullandi: 10-mart 2022

Chop etildi: 17-mart 2022

KALIT SO'ZLAR

Raqobat, monopoliya, monopolistik faoliyat, tabiiy monopoliyalar, rag'batlantiruvchi kuch.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada raqobat tushunchasi va uning vazifasi, O'zbekiston Respublikasining monopolistik faoliyatni cheklash hamda mamlakatda raqobatni rivojlantirishga qaratilgan qator chora-tadbirlari hamda qabul qilingan qonunlari tahlil etilgan va raqobatning ijobiy xususiyatlari yoritilgan.

Aslida, iqtisodiy kategoriya sifatida bizga ma'lum bo'lgan raqobat tushunchasi haqida ko'p qirrali tasavvurlar mavjuddir va "raqobat" – bu arabcha so'z bo'lib "nazorat, kuzatish" degan ma'noni bildiradi. O'zbek tilining izohli lugatida ushbu so'zga shunday tarif beriladi: "Iqtisodiy ma'noda mustaqil tovar ishlab chiqaruvchi(korxona)lar o'rtasida tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman, iqtisodiyotda, o'z mavqeini mustahkamlash uchun kurashdir"^[1]. Raqobat atamasi ingliz tilida "competition", rus tilida "конкуренция", nemis tilida "wettbewerb" shaklida uchraydi. Bu

atamalarining barchasi lotin tilida mavjud bo'lgan "concurrentia"- (to'qnashuv) so'zidan kelib

¹ X. T. Azizov. va boshqalar. "Raqobat huquqi". Darslik. T. 2006.



chiqqandir. Umumiy ma'noda, raqobat muayyan bir sharoitda shaxslar, guruhlar, tashkilotlarning nisbatan yaxshiroq natijalarga erishish uchun o'zaro musobaqalashuvini anglatadi.

Raqobat bozor iqtisodiyotining asosiy mexanizmi sifatida kompaniyalarning o'z tovarlari va xizmatlarini xaridorlarga eng qulay narxlarda taklif qilishlarini rag'batlantiradi. Iqtisodchi olim Ahmadjon O'lmasovning fikriga ko'ra- raqobat bozor iqtisodiyoti ishtirokchilarining o'z manfaatlarini yuzaga chiqarish uchun bir bir bilan kurashi, ularning o'zaro bellashuvidir^[2].

N. Beknozovning ta'kidlashicha, raqobat- bir maqsad sari intilayotgan bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarining to'planishi ular o'rtasidagi yuqori foyda va ko'proq naf ko'rish uchun kelib chiqadigan kurashdan iboratdir^[3]. K. Xoliqov va R. Do'sanovlar fikriga ko'ra, raqobat – iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining o'z ehtiyoj va manfaatlarini maksimal qondirish, yaxshi daromad olish, bozorda o'z mavqeini mustahkamlash, imkoniyatlarini namoyon etish hamda imijga ega bo'lish uchun kurashdan iborat jarayondir^[4].

Raqobat narxlarni pasayishini ta'minlaydi, xaridorlar uchun tanlov doirasini kengaytiradi, shuningdek, samaralilik va yangilikga intiluvchanlikni rag'batlantiradi. Raqobatning mavjud

bo'lmasligi yoki raqobatga zid xatti-harakatlarning sodir etilishi nafaqat mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta'sir o'tkazadi, balki iste'molchilar huquqlarini ham poymol bo'lishiga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasida raqobatni rivojlantirish hamda raqobatga qarshi harakatlarni cheklash to'g'risida qator qonun hujjatlari ishlab chiqilgan va qabul qilingan. Dafa'tan, 2012-yil 6-yanvardagi O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi qonuni qabul qilingan bo'lib, ushbu qonunning maqsadi tovar va moliya bozorlaridagi raqobat sohasidagi munosabatlarini tartibga solishdan iborat, deb belgilangan^[5]. Ushbu qonunning to'rtinchi moddasida raqobat tushunchasiga huquqiy ta'rif berilgan. Unga ko'ra, raqobat - xo'jalik yurutuvchi subyektlarning (raqobatchilarning) musobaqalashuvi bo'lib, bunda ularning mustaqil harakatlari ulardan har birining tovar yoki moliya bozoridagi tovar muomalasining umumiy shart-sharoitlariga bir tomonlama tartibga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini istisno etadi yoki cheklaydi, deb ta'riflaydi^[6]. Raqobat to'g'risidagi qonunga ko'ra xo'jalik yurutuvchi subyekt deganda, tovarlarni ishlab chiqarish, olish va realizatsiya qilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxs, shu jumladan chet ellik yuridik shaxs, xo'jalik boshqaruvi organi, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkor tushuniladi. O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risida"gi qonuni 7 ta bob va 44 ta moddadan iborat.

² A. O'lmasov, A. Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent. "Iqtisod-Moliya". 2014.

³ N. Beknozov. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent. 2005.

⁴ K.O. Xoliqov, R. X. Do'sanov. Raqobat: nazariyasi, shakllari va usullari. Ilmiy risola. TerDU. 2009.-66.

⁵ O'zbekiston respublikasi "Raqobar to'g'risida"gi qonun. 2012-yil 6-yanvar.

⁶ O'zbekiston respublikasi "Raqobar to'g'risida"gi qonun. 2012-yil 6-yanvar.



1992-yil 2-iyuldagi **“Monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida”**gi qonun

1996 –yil 27-dekabrdagi **“Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida”**gi qonun

2012-yil 6-yanvardagi
“Raqobat to‘g‘risida”gi
qonun

1-rasm. Raqobat qonunchiligini tartibga solish jarayoni.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgan dastlabgi yillarida raqobat qonunchiligining ilk tartibga solinishi 1992-yil 2-iyuldagi “Monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida”gi qonun bilan izohlanadi. (1-rasm)^[7]

Keyingi davrlarda O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi hamda diversifikatsiyalanishi, tovar va moliya bozorlarining yanada rivojlanishi, sog‘lom raqobatni shakllantirish vazifasining dolzarblashuvi natijasida mavjud

qonunchilikni takomillashtirish zarurati yuzaga keldi. Buning natijasida, 1996-yil 27-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida”gi qonun qabul qilindi. 2010-yil 12-noyabrda O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidentining “Mamlakatimizda demografik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi”da “Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to‘g‘risida”gi qonunning o‘rniga mutlaqo boshqa va

⁷ 1-rasm. Muallif ishlanmasi.



yangi ko'rinishdagi qonun "Raqobat to'g'risida"gi qonunni qabul qilish g'oyasi ilgari surildi. Natijada, O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qonunchilik palatasi tomonidan 2011-yil 14-noyabrda "Raqobat to'g'risida"gi qonun qabul qilindi va ushbu qonun 2011-yil 5-dekabrda Senat tomonidan maqullandi. 2012-yil 6-yanvarda esa ushbu qonun Prezident tomonidan imzolani, 2012-yil 7-yanvarda matbuotda rasman e'lon qilindi.

Shu bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasida strategik ahamiyatga ega bo'lgan bir necha sohalarda davlat ulushi yuqoriligi tufayli yoki haqli ravishda monopol mavqega ega ekanligini hisobga olgan holda, texnologik xususiyatlar tufayli muayyan tovarlar (xizmatlar yoki ishlar) turlariga bo'lgan talabni qondirishning raqobatli muhitini yaratish imkoni yo'qligi sababali yoki iqtisodiy jihatdan ma'qul emasligi tabiiy monopoliyalar mavjud bo'lishini hamda tabiiy monopoliyalarni tartibga soluvchi huquqiy asos yaratilishini taqozo etadi. Shu tufayli, 1997-yil 27-aprelda O'zbekiston Respublikasining "Tabiiy monopoliyalar to'g'risida"gi qonuni qabul qilindi va mazkur qonun 1999-yil 19-avgustda yangi tahrirda tasdiqlandi.

Hozirgi zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida bozor munosabatlarining samarali ishlashi iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik tizimi sifatiga bog'liqdir. Iqtisodiy munosabatlarning samarali ishlashi hamda barqaror rivojlanishini ta'minlab beruvchi omillardan biri bu, shubhasiz, raqobatdir. Hozirgi kunda, O'zbekiston Respublikasi tovar va moliya bozorlarida raqobatning samarali ishlashi va amal qilishini ta'minlash maqsadida bir qator me'yoriy-

huquqiy hijjatlar qabul qilingan va bugungi kunda ham takomillashtirilmoqda.

Butun jahon bozorlarida raqobat tobora kuchayib keskinlashib borayotgan bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotini raqobatbardoshligini tubdan oshirish, eksportga mahsulot chiqaradigan korxonalarni qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznes hamda fermer xo'jaliklari subyektlarining eksport faoliyatidagi ishtirokini har tomonlama rag'batlantirish dolzarb masalalardan biridir.

Raqobat bir necha ijobiy xususiyatlarga ega va ular quyidagilarda o'z aksini topadi:

Dastlab, bozor talablariga javob bermaydigan tovarlar, ishlar, xizmatlar sifat va narx jihatidan talabga javob bermasa o'z-o'zidan bozordan chiqib ketadi. Bu holatda raqobatning sog'lomlashtirish vazifasi namoyon bo'ladi hamda raqobatbardosh bo'lmagan subyektlardan bozor tozalanadi.

Ikkinchidan, raqobat rags'batlantiruvchi kuchga ham aylanishi mumkin. Bu holatda, raqobatlashuvchilar nisbatan yaxshiroq sifat va mos narxni shakllantirish uchun tinmay o'z tovarlari (xizmatlari)ning sifatini yaxshilashga intiladilar. Shu o'rinda bir ma'lumotni qayd etib o'tish joizki, ma'muriy vozitalar orqali mahsulot sifatini yaxshilashga urinishdan ko'ra, xo'jalik yurutuvchi subyektlarning o'zaro raqobati tovarning sifati va narxiga samaraliroq ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, raqobat vastasida iste'molchilar haq-huquqlari ham ta'minlanadi. Keling tasavvur qilaylik, agarda bozorda raqobat mavjud bo'lmasa, demak iste'molchilar yoki xaridorlarda ham tanlash imkoniyati o'z-o'zidan mavjud



bo'lmaydi. Bozorda raqobatning mavjud bo'lishi va ma'lum tovarlarga nisbatan muqobil tovar ishlab chiqaruvchilar yoki xizmat ko'rsatuvchilarning mavjud bo'lishi iste'molchilar yoki xaridorlar uchun tanlov imkoniyatini ancha kengaytiradi.

Raqobat muhitini himoya etilishi hamda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi tufayli raqobatlashuvchi shaxslarning mustaqil va tashabbuskor ish olib borish erkinligi ta'minlanadi, tadbirkorda o'zaro musobaqalashuv hissi kuchayadi.

Xulosa qilsak, raqobat bu bozorda tovar ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar o'rtasidagi yuqori foyda va yaxshi daromad olish uchun o'zaro olib boriladigan kurash yoki musoqabalashuvdir. Bozorda raqobat mavjudligining o'zi bozorning sog'lomlashishiga, tovarlar sifati oshishi hamda narxi pasayishiga hamda iste'molchilar yoki xaridorlar manfaatlari himoya qilinishiga yuqori hissa qo'shadi. Raqobat mavjud joyda tovarlar sifati va narxi ustidan kuchli ma'muriy nazorat olib borishni zarurati yo'qdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Raqobat to'g'risida"gi qonuni
2. O'zbekiston Respublikasining "Tovar bozorlarida monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida"gi qonuni
3. O'zbekiston Respublikasining "Monopolistik faoliyatni cheklash va raqobat to'g'risida"gi qonuni
4. A. O'lmasov, A. Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent. "Iqtisod-Moliya". 2014.
5. N. Beknozov. Iqtisodiyot nazariyasi. Toshkent. 2005.
6. X. T. Azizov. va boshqalar. "Raqobat huquqi". Darslik. T. 2006
7. K. O. Xoliqov, R. X. Do'sanovlar. Raqobat: nazariyasi, shakllari va usullari. Ilmiy risola. TerDU. 2009.
8. O'zbek tilining izohli lug'ati. A. Madvaliyev. Toshkent. 2006. 360-bet.